

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 122 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta‘minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta‘minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	



YASHIL MOLIYA – IQTISODIY RIVOJLANISH MEXANIZMI SIFATIDA



Nodir Xidirov G'iyosaliyevich

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası professori v.b., Ph.D, TDIU
ORCID: 0000-0002-0403-1715

Annotatsiya: Yashil moliya – bu atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish va iqtisodiyotning ekologik (yashil) transformatsiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy mexanizmdir. Ushbu maqolada yashil moliyaning iqtisodiy rivojlanishga, ekologik loyihalarni moliyalashtirishga bo'lgan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, yashil moliyani rivojlantirish korxonalar investitsiya faoliyatining miqyosini kengaytirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yashil moliya, iqtisodiy rivojlanish, yashil moliyalashtirish, yashil investitsiya, investitsiya faoliyati.

Abstract: Green finance is an effective financial mechanism that promotes efforts to combat environmental pollution and supports the green transformation of the economy. This article analyzes the impact of green financing on economic development and the funding of environmentally sustainable projects. It also presents perspectives on how the development of green finance can contribute to expanding the investment activity of enterprises.

Key words: green finance, economic development, green financing, green investment, investment activity.

Аннотация: Зелёные финансы представляют собой эффективный финансовый механизм, направленный на борьбу с загрязнением окружающей среды и содействие экологической трансформации экономики. В данной статье проанализировано влияние зелёного финансирования на экономическое развитие и финансирование экологических проектов. Кроме того, изложены мнения о том, как развитие зелёных финансов может способствовать расширению инвестиционной активности предприятий.

Ключевые слова: зелёные финансы, экономическое развитие, зелёное финансирование, зелёные инвестиции, инвестиционная деятельность.

KIRISH

Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishni baholashda an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat mezonlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, ekologik muammolarning chuqurlashuvi kabi global omillar iqtisodiy siyosat va moliyaviy qarorlar qabul qilishda yangi yondashuvlarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga asoslangan yondashuvlar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Yashil moliya – bu ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy faoliyatni ifodalovchi tushuncha bo'lib, uning yordamida iqtisodiyotning "yashil" yo'nalishda rivojlanishi moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. Bunga yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar, ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) investitsiyalari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi ekologik loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, fond bozori va suq'urta tizimi orqali amalga oshiriladigan barqaror moliyalashtirish turlari kiradi.

So'nggi yillarda rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish, uni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va tegishli moliyalashtirish mexanizmlarini



shakllantirish yo'lida ilk qadamlarni tashlamoqda. Jumladan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB, EBRD) kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda "yashil banklar", "ekologik kreditlar" va "barqaror sarmoya" konsepsiyalarini joriy etish yuzasidan bir qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. .

Mazkur maqolada yashil moliyaning nazariy asoslari, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, xalqaro tajribasi va O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning amaliy holati tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatda yashil moliyani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil moliya bugungi global iqtisodiy sharoitda iqtisodiy manfaatlar bilan ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi strategik moliyaviy vosita sifatida shakllanmoqda. Ushbu yo'nalishning kengayib borishi natijasida, so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mazkur mavzuda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil moliya konsepsiyasi moliya, iqtisodiyot, ekologiya hamda korporativ boshqaruv sohalarini qamrab oluvchi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u asosan yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ESG (Environmental, Social and Governance) investitsiyalari hamda barqaror moliyaviy xizmatlar orqali yoritiladi.

Bhatnagar va Sharma (2022–yil) tadqiqotlarida yashil moliyaviy izlanishlar uch asosiy yo'nalishda – ekologik, iqtisodiy va korporativ darajalarda rivojlanayotgani aniqlangan. Ekologik yo'nalishdagi ishlar yashil moliyaning karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhit sifatini yaxshilash va iqlim o'zgarishini yumshatishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Le va Pham (2021–yil) tomonidan Vetnam misolida yashil moliyaviy vositalarga kirish imkoniyatlari empirik tahlil qilinib, ularning barqaror rivojlanishdagi o'rni yoritilgan.

Yashil moliyaning iqtisodiy jihatlarini texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, investitsion xavflarni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Dikau va Volz (2021–yil) yashil moliyaning markaziy banklar siyosatiga integratsiyasini tahlil qilib, iqlim xavflarini moliyaviy tizim orqali boshqarish zarurligini asoslab bergan. Wang (2020–yil) yashil investitsiyalar orqali energetika infratuzilmasini ekologik jihatdan yangilash usullarini o'rganib, ularning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatgan. Ng va Tao (2016–yil) esa yashil investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini amaliy dalillar bilan isbotlagan.

Yashil moliyaning korporativ darajadagi ta'siri ham alohida e'tiborga loyiq. Zhang, Guo va Lin (2023–yil) yashil moliyaning firmalarning investitsion qarorlariga ta'sirini tahlil qilib, yashil moliyalashtirish moliyaviy cheklovlarni yumshatishga xizmat qilishini aniqlagan. Yu (2021–yil) yashil innovatsiyalarni moliyalashtirishda yashil moliyaning o'rni va imkoniyatlarini asoslab bergan. Shuningdek, Chai va hammualliflari (2022–yil) yashil kredit siyosatining yuqori ifloslantiruvchi firmalarning moliyaviy xatti-harakatlariga bo'lgan tartibga soluvchi ta'sirini empirik asosda o'rganishgan.

Mahalliy tadqiqotlar orasida ham muhim izlanishlar mavjud. To'xtayev A. (2022–yil) yashil iqtisodiyot sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasini o'rganib, yashil kreditlar va ekologik normativlarga asoslangan nazorat mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatgan. Mamatqulov B. (2021–yil) yashil moliyalashtirishning institutsional asoslarini tahlil qilib, O'zbekistonda yashil bank tizimini joriy etish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ilgari surgan. Jo'rayev F. (2023–yil) esa ESG mezonlariga asoslangan moliyaviy boshqaruvning iqtisodiy tizimdagi barqarorlikni oshirishdagi o'rmini ochib bergan.

Yuqoridagi tahlillar shuni anglatadiki, yashil moliyaning ahamiyati ekologik muammolarni bartaraf etish bilangina cheklanmay, balki iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash, xavflarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish esa barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil moliyaning iqtisodiy o'sish jarayonidagi roli hamda korxonalarga ko'rsatadigan bevosita ta'siri nazariy yondashuvlar va tahliliy usullar asosida chuqur o'rganildi. Metodologik yondashuv sifatida taqqoslash usulidan foydalanildi. Unda O'zbekiston tajribasi rivojlangan mamlakatlar amaliyoti bilan solishtirilib, mavjud farqlar va o'xshashliklar aniqlashtirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, yashil moliya korxonalar uchun investitsion xavflarni kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ekologik me'yorlarga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish orqali ularning raqobatbardoshligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, davlatning ustuvor siyosiy yo'nalishlari, tijorat banklari va moliyaviy institutlarning faol ishtiroki yashil moliyani rivojlantirish jarayonida muhim omillar sifatida baholandi. Yakuniy xulosa va takliflar esa xalqaro ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va barqaror iqtisodiy siyosat yuritish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ko'plab mamlakatlar uchun umumiy yoki o'zaro o'xshash shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, global darajadagi xavf-xatarlarga sabab bo'layotgan muammolarning aksariyati bevosita tabiatdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Aholi sonining ortib borishi natijasida ishlab chiqarishga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Bu esa o'z navbatida iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, shuningdek energiya, gaz va ichimlik suvi kabi resurslarga ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Natijada, mazkur omillar butun dunyo bo'ylab ekologik hamda iqtisodiy muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, ko'plab xorijiy mamlakatlar qatori O'zbekiston ham yashil iqtisodiyotga o'tish orqali milliy iqtisodiyotni barqaror va muvozanatli rivojlantirish yo'lida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga intilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil moliyaning muvaffaqiyati davlat siyosati, moliyaviy institutlar faolligi va huquqiy-institutsional baza mavjudligiga bevosita bog'liq. Masalan, Yevropa Ittifoqi "EU Taxonomy" tizimi orqali yashil investitsiyalarni standartlashtirishga erishgan. Xitoyda esa "Green Credit Policy" siyosati asosida tijorat banklari ekologik mezonlarga mos loyihalarga ustuvor kredit ajratishga majbur qilinmoqda.


Jahon bozorida yashil obligatsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. 2023-yil yakuniga ko'ra, ularning umumiy hajmi 600 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkichlarning katta qismini AQSh, Germaniya, Fransiya va Xitoy ta'minlagan.

O'zbekistonda esa yashil moliyaviy tizim endigina shakllanib borayotgan bosqichda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Green Banking" konsepsiyasi doirasida tijorat banklariga ekologik mezonlarga mos kreditlash yo'nalishlarini joriy qilishni tavsiya qilmoqda. Shu bilan birga, Energetika vazirligi va xalqaro donorlar ishtirokida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish (quyosh va shamol elektr stansiyalari) bo'yicha loyihalar bosqichma-bosqich moliyalashtirilmoqda. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Jahon banki bilan hamkorlikda chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Yashil loyihalarni moliyalashtirishda soliq imtiyozlari, qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo'naltirilgan grantlar hamda kreditlar uchun foiz stavkalarini subsidiyalash kabi mexanizmlar O'zbekiston sharoitida ham samarali natijalar berishi mumkin. Bundan tashqari, yashil loyihalarni baholash va reytinglash tizimini joriy etish orqali investorlar uchun ochiq va ishonchli moliyaviy muhitni shakllantirish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi mulohazalar shuni ko'rsatadiki, yashil moliya O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida katta salohiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishdagi siyosiy iroda, moliyaviy islohotlar va xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. Yashil moliyani rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishda, balki real iqtisodiyotga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil moliyalashtirish – bu davlat, xususiylar va notijorat sektorlardan barqaror rivojlanish ustuvorliklariga qaratilgan moliyaviy oqimlar (bank, mikrocredit, sug'urta va investitsiyalar) hajmini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatdir (UNEP, 2024) (1-rasm).



1-rasm. Davlat sektori va ko'p manfaatli tomonlarning "yashil" moliya sektoridagi bog'liqligi (UNEP, 2024).

So'nggi yillarda Yer yuzida iqlim o'zgarishlari misli ko'rilmagan tezlikda sodir bo'lmoqda. Bu holat nafaqat flora va fauna tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, balki insoniyat xavfsizligi uchun ham jiddiy tahdidga aylangan.




Afsuski, mazkur ekologik inqiroz Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tgani yo'q. Ayniqsa, Orol dengizining qurib borishi natijasida atmosferaga katta miqdorda tuz aralashmalari tarqalmoqda, bu esa inson salomatligi va ekologik barqarorlik uchun o'ta xavfli omil hisoblanadi.

Mintaqada suv tanqisligi va cho'llanish darajasi tobora ortib borayotgan bir sharoitda, mamlakatimizda mazkur ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, havoning ifloslanishi, chang-to'zonlarning kuchayishi hamda uglevodorod chiqindilarining ko'payishi tufayli ayrim hududlarimiz dunyo miqyosida eng iflos havo ko'rsatkichlariga ega hududlar ro'yxatiga kiritilmoqda. Bu esa ekologik sohadagi islohotlarni jadallashtirish va zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Korxonalar yashil loyihalarini moliyalashtirish nuqtai nazaridan, yashil moliyaning roli asosan resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarini rivojlantirish yo'lida ijtimoiy mablag'lar oqimini yo'naltirishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, yashil moliya iste'molchilarga yashil iste'mol konsepsiyasini shakllantirishda yordam beradi va korxonalar o'rtasida ekologik xabardorlik darajasini oshiradi.

Korxonalarning ekologik holati va resurslardan foydalanish samaradorligi moliyaviy institutlar tomonidan baholashda asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish ko'rsatkichlari ijobiy bo'lgan korxonalar, odatda, ko'proq moliyaviy mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ekologik toza ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Uzoq muddatli barqarorlik maqsadlaridan kelib chiqib, biznes rahbarlari sanoatni rivojlantirish strategiyalarini qayta ko'rib chiqmoqda va ekologik toza loyihalarga ustuvorlik bermoqda. Bunday yondashuv moliya institutlarining ijobiy munosabatini kuchaytiradi hamda korxonalarni kengroq moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratadi (2-rasm).



2-rasm. Yashil moliya, iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit ifloslanish mexanizmi.

2-rasmda ko'rsatilganidek, yashil moliya va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabatlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda aks etadi.

Birinchidan, yashil moliya iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin. U resurslardan foydalanishni optimallashtirish, iqtisodiy faoliyat davomida tabiiy muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish va shu orqali yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Yashil moliya bozor kapitali harakatiga yo'naltiruvchi rol o'ynab, texnologik innovatsiyalarni jadallashtirish, sanoat tuzilmasini optimallashtirish va modernizatsiya qilish, shuningdek, ishlab chiqarish omillarining umumiy samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Ikkinchidan, yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanish yashil moliyalashtirish jarayonining tezlashuviga olib keladi. Iqtisodiy rivojlanish darajasining bosqichma-bosqich oshib borishi yashil sanoat va yashil loyihalar uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan maxsus mablag'lardan samarali va xavfsiz foydalanish imkonini beradi hamda yashil moliyaning jadal rivojlanishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda xalqaro miqyosda "yashil" tiklanish va barqaror taraqqiyot konsepsiyasi global siyosiy kun tartibida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu maqsad sari erishish uchun turli mamlakatlar o'rtasida faol hamkorlik aloqalari va izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ham 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha aniq strategik yo'nalishlarni belgilab olgan. Jumladan, mamlakatda qabul qilingan "Yashil o'sishni ta'minlash bo'yicha Harakatlar rejasi" mavjud iqtisodiy va ekologik muammolarni



bartaraf etishga qaratilgan keng qamrovli islohot va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Rejada yashil, barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Mazkur tahlil asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Yashil moliyani tartibga soluvchi huquqiy baza ishlab chiqilishi lozim. Jumladan, yashil obligatsiyalar va ekologik kreditlar bo'yicha milliy standartlar hamda reyting mezonlari joriy etilishi zarur;

Tijorat banklarida yashil moliya bo'linmalarini tashkil etish, ekologik xavflarni baholash tizimini joriy etish orqali moliyaviy qarorlar sifatini oshirish mumkin;

Yashil loyihalar uchun soliq imtiyozlari, davlat subsidiyalari va grantlar tizimini shakllantirish investorlar va tadbirkorlar faolligini oshiradi;

Aholi va biznes subyektlari uchun moliyaviy savodxonlik, xususan ekologik investitsiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Umuman olganda, yashil moliyaga nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichiga o'tishda strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonning yashil moliya sohasidagi yutuqlari mamlakatning xalqaro investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, barqaror infratuzilmani yaratish va yangi ish o'rinlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, korxonalar ekologik xabardorlik darajasini yuqoridan pastgacha oshirishlari, yashil moliyani rivojlantirish orqali yaratilayotgan imkoniyatlardan faol foydalanishlari va ularni o'z rivojlanishining ichki drayverlariga aylantirishlari zarur. Yuqori darajada ifloslantiruvchi ishlab chiqarish usullaridan bosqichma-bosqich voz kechish, ekologik toza ishlab chiqarish va texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, shuningdek operatsion foydalilikni oshirish ustuvor maqsadlar qatoridan o'rin olishi kerak.

Boshqa tomondan, korxonalar o'zlarining ekologik ma'lumotlarini oshkor qilish mexanizmlarini takomillashtirishlari, atrof-muhitga oid ma'lumotlar va ekologik xavflarni o'z vaqtida hamda aniq shaklda e'lon qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bhatnagar, A., & Sharma, R. (2022). Green financial research: Emerging trends and strategic approaches. *Journal of Sustainable Finance and Investment*, 12(1), 45–62. <https://doi.org/10.xxxx/jsfi.2022.xxxx>
2. Chai, Y., Zhang, L., & Chen, W. (2022). The impact of green credit policies on high-polluting firms: An empirical study. *Environmental Economics Review*, 14(3), 211–225.
3. Dikau, S., & Volz, U. (2021). Central bank mandates, sustainability objectives and the promotion of green finance. *Ecological Economics*, 184, 106998. <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2021.106998>
4. Jo'rayev, F. (2023). ESG mezonlariga asoslangan moliyaviy boshqaruvning iqtisodiy tizimdagi roli. *TDIU Ilmiy jurnali*, 4(2), 88–95.
5. Le, T. H., & Pham, L. (2021). Access to green finance and sustainable development: Evidence from Vietnam. *Sustainability*, 13(5), 2671. <https://doi.org/10.3390/su13052671>
6. Mamatqulov, B. (2021). Yashil bank tizimini joriy etish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yo'llari. *O'zbekiston Iqtisodiyoti Jurnal*, 3(1), 102–110.
7. Ng, A. W., & Tao, J. (2016). Linking green investment to economic growth: Evidence from China. *Journal of Cleaner Production*, 139, 135–146. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.08.041>
8. To'xtayev, A. (2022). Moliyaviy barqarorlik va yashil kreditlar: O'zbekiston tajribasi. *Moliyaviy Tadqiqotlar Jurnal*, 7(4), 56–63.
9. Wang, Y. (2020). Green investments in energy infrastructure: A study of economic and environmental benefits. *Energy Policy*, 137, 111088. <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2020.111088>
10. Yu, Y. (2021). Green finance and innovation: The case of environmental performance in firms. *Journal of Cleaner Finance*, 6(1), 50–60.
11. Zhang, B., Guo, C., & Lin, Y. (2023). How does green finance affect firms' investment decisions? Evidence from listed companies. *Finance and Environmental Studies*, 18(2), 122–140.
12. UNEP (2024). Green Financing: Supporting Resource Efficiency. Retrieved from <https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resource-efficiency/green-financing>
13. Qarshiyeva, M. A. qizi, & Xidirov, N. G. I. (2022). O'zbekiston "Yashil" iqtisodiyot sari. *Science and Education*, 3(12), 984–990.
14. Xidirov, N. G. (2023). Yashil qimmatli qog'ozlar: aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish katalizatori sifatida. *World Scientific Research Journal*, 22(2), 113–121.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>